

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORI RIVOJLANISHINING TADRIJIY BOSQICHLARI

Yadgarov Akram Akbarovich

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti, i.f.n., dotsent

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
<p>Volume: 1 Issue: 1 DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss1/a15</p>	<p>Maqolada mamlakatimiz sug'urta bozorining tadrijiy rivojlanish bosqichlarini yillar davomida rivojlanishi jarayonlari, huquqiy asoslari va moliyaviy ko'rsatkichlar taqqoslama tarzda tahliliy o'rganilgan holda bo'lib tadqiq qilingan. Shuningdek, sug'urta bozori faoliyatini rivojlanishining tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari o'rganilgan va xulosalar berilgan. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta faoliyatining dolzarbligi va ahamiyatini yanada oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p>
<p>KEYWORDS</p>	<p><i>ixtiyoriy va majburiy sug'urta, sug'urta mahsulotlari, sug'urta mukofoti, sug'urta javobgarligi, sug'urta tovonlari, sug'urta bozori, sug'urtalashdagi islohotlar.</i></p>

Kirish

Yurtimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab sug'urta tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida bevosita davlat, fuqarolar va barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishning samarali vositasiga aylanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz sug'urta bozorining tashkil topishi va sug'urta faoliyatining rivojlanishi borasida tadqiqot olib borgan yetuk olimlari ham o'z izlanishlari bilan soha rivojiga o'z hissarini qo'shib kelmoqda. Sug'urta bozori faoliyatini rivojlanish borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish, tadrijiy jihatdan rivojlanish bosqichlarini o'rganish hamda ilmiy asoslangan xulosalarga kelish istiqbolda sug'urta faoliyatini barqaror rivojlanishi borasida tadqiqotlar olib borishning muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida respublikamiz sug'urta bozorining ahamiyati borgan sari ortib bormoqda. Sug'urta bozori rivojlanishini belgilab beradigan omillardan biri yalpi ichki mahsulot hajmida sug'urta mukofotlarining ulushi orqali aniqlanadi. Xalqaro "New Frontier" tashkilotining ma'lumotlariga asosan jami sug'urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali aniqlanadigan "Sug'urtaning kirib kelish darajasi" ko'rsatkichi dunyo miqyosida 6,35 foizni, O'zbekistonda esa 0,35 foizni tashkil etadi[1].

Tadqiqotning maqsadi sifatida mamlakat sug'urta bozorining tadrijiy rivojlanish tendensiyalarini tahliliy o'rganish va holatni baholash hamda sug'urta bozorida ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining ahamiyatini kengroq tadqiq qilishdan iborat.

Ushbu tadqiqot muammosini hal etishda sug'urta bozorini o'rganish va bugungi sug'urtalash amaliyotini yanada takomillashtirish zaruriyati sifatida quyidagilarni keltirib o'tish joiz:

- respublika sug'urta bozori va sug'urta faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- sug'urta bozorida sug'urtalanuvchilar qamrovini oshirishda sug'urtaning afzalliklari haqida doimiy targ'ibot ishlarini jadallashtirish;
- sug'urta bozorida sug'urtalash bilan bog'liq holatlarda davlat ko'magini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sug'urta faoliyatiga tegishli manbaalarni o'rganish sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos tendensiyalarini belgilab beradi. Xususan, milliy sug'urta bozori rivojlanishini uch bosqichga bo'lgan holda ilmiy izlanishlarini olib borgan.

Shuningdek, milliy sug'urta bozorini rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishda sug'urtalanuvchilarning huquq va majburiyatlariga alohida ahamiyat qaratib o'tgan[2].

Sug'urta bozori va sug'urta faoliyati rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan iqtisodchi olim X.Shennayev ham o'z ilmiy-tadqiqotlarida mustaqillik yillarida sug'urta faoliyatining rivojlanish davrini besh bosqichga ajratgan holda tadqiq qilgan. Olim o'z tadqiqotlarida sug'urta bozorining rivojlanish faoliyatiga chuqur to'xtalgan holda har bir davrda amalga oshirilgan chora-tadbirlarga ilmiy nuqtai-nazardan to'xtalib o'zining soha rivojiga salmoqli hissasini qo'shgan[3].


O'zbekiston sug'urta bozorida o'zaro sug'urtalashning ahamiyati va uning afzalliklari haqida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlardan Q.M.Qo'ldoshev ham o'zaro sug'urtani joriy etish borasida huquqiy ta'minotini yo'lga qo'yish, o'zaro sug'urtani rivojlantirishda sohaga taalluqli imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish zaruriyatini asoslab bergan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy maqsadi milliy sug'urta bozori faoliyatini o'rganish va sug'urta bozorida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaldagi ijrosi, shuningdek, sug'urta bozorida sug'urtalash holatini tahlil qilish asosida sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda taqqoslash, guruhlash va empirik tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijasida sug'urta bozori ko'rsatkichlarini tahliliy o'rganishdan iborat. Ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalardan mamlakatimiz sug'urta bozorini va sug'urtalash faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkin.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida yurtimiz sug'urta bozori va uning o'ziga xos tadrijiy rivojlanish bosqichlari bosib o'tdi. Sug'urta bozorining rivojlanishiga huquqiy poydevor dastlab 1992-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi O'zirlar Mahkamasining 605-son "O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari to'g'risida nizom" tasdiqlanib, davlat sug'urta organlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq sug'urtalashning majburiy va ixtiyoriy turlarini amalga oshirishi belgilab olindi[5].

Sug'urta bozorida istiqlolning ilk yillarida davlat va nodavlat sug'urta tashkilotlari ham sug'urta faoliyati borasida o'z xizmatlarini ko'rsatib keldi. Shuningdek, davlat tashkiloti sifatida "Gosstrax" sug'urta tashkiloti monopoli mavqeiga ega holda o'zining faoliyatini davom ettirib



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida 1997-2021-yillarda faoliyat yuritgan sug'urta kompaniyalari soni, birlik¹

keldi. Asosan, 1991-yildan to 1997-yilgacha ushbu tashkilot sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarini ko'rsatib keldi. Sug'urta bozorida faoliyat yuritgan davlat va nodavlat sug'urta tashkilotlari tomonidan 1993-1996-yillar davomida sug'urta faoliyatini olib borish natijasida 1993-yilda majburiy sug'urta badalining umumiy hajmi 21871,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy davrda ixtiyoriy sug'urta badalining hajmi 4856,4 ming so'mni tashkil etgan holda majburiy sug'urtaga nisbatan 4,5-marta kichikligidan dalolat beradi.

1996-yilga kelib majburiy sug'urtaning ulushi 1995-yilga nisbatan 3,2 barobarga oshgan. O'tish davrida majburiy sug'urta badalining ulushi 1993-yilda 81,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1996-yilga kelib uning ulushi 82,1 foizni tashkil etgan. Demak, xulosa o'rnida aytish joizki, ixtiyoriy sug'urtaga bo'lgan e'tiborning pastligidan dalolat beradi.

1997-yildan 2001-yilgacha bo'lgan davr sug'urta bozori rivojlanishining islohotlar davri bo'ldi desak maqsadga muvofiq. 1997-yilda sug'urta bozorida 25 ta turli mulkchilikka asoslangan sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritgan bo'lib, sug'urtaning barcha turlari bo'yicha jami sug'urta javobgarligi 308,2 mlrd. so'mni, jami sug'urta mukofotlari tushumi 2,03 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, joriy davrda turli tabiiy ofatlar va stixiyali hodisalar natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida 0,33 mlrd. so'm sug'urta qoplamalari to'lab berilgan holda sug'urtalanuvchilar manfaati himoya qilingan.

Sug'urta bozorining tadrijiy rivojlanishi 2002-2010-yillarni o'ziga xos islohotlar davri desak muholaga qilmaymiz. Ushbu davr sug'urta bozorining har tomonlama takomillashuviga keng imkoniyatlar yaratib berdi.


Sug'urta bozorida sug'urtalovchilar soni va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishi, sohada kadrlar tayyorlash va ularning

malakasini oshirishga bo'lgan e'tiborning oshishi hamda sug'urta kompaniyalarining faoliyatida yangi sug'urta xizmatlarini ishlab chiqishlariga olib keldi.

Sug'urta faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar samarasi sifatida 2002-yilda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar sug'urta bozori rivojida o'ziga xos ijobiy natijalarga erishishiga sabab bo'ldi. Aynan, 2002-yilda sug'urta bozori rivojida amalga oshirilgan islohotlar sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi hamda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlashda qolaversa har tomonlama huquqiy muhofaza muhitini shakllantirdi. 2002-yil 5-aprelda "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni[6] qabul qilinib, unda asosan umumiy va hayotni sug'urta qilish masalalariga katta e'tibor qaratildi.

Sug'urta bozori rivoji mamlakat iqtisodiyoti va uning tarmoqlari uchun muhim hisoblanadi. Shu jihatdan, har tomonlama sug'urta faoliyatini rivojlanishida, sug'urta bozori faoliyatida raqobat muhitining shakllanishida sug'urta qonunchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun bilan hamohang tarzda sug'urta bozori faoliyati rivojini ta'minlab beradigan, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Aynan, bu borada 2003-yil 27-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 413-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori[7] o'z davrida sug'urta bozori rivojiga katta hissa qo'sha oldi.

O'zbekiston sug'urta bozorida 1997-2021-yillarda faoliyat yuritgan sug'urta kompaniyalari soni deyarli 25 yil ichida o'ziga xos o'zgarish tendensiyasiga ega bo'ldi. Xususan, 1-rasmda 1997-yilda sug'urta kompaniyalari soni 25 tani tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilga kelib ularning



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy sug'urta mukofotlarining 2012-2021-yillardagi tushumi, (mlrd. so'm)²

soni 37 ta yetdi. Asosiy sababi, majburiy sug'urta turlarining joriy etilishi va majburiy sug'urta bo'yicha litsenziyaga ega bo'lish maqsadida sug'urta faoliyatiga qiziquvchi sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Sug'urta bozorida sug'urta kompaniyalari soni 2013-yilda 30 tani tashkil qilgan bo'lsa 2021 yil yakunlariga ko'ra sug'urta kompaniyalari soni 42 taga yetdi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmonining[8] 3.2-bandiga ko'ra, "Sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish" masalalari belgilab berildi. Unga ko'ra, mamlakatimiz sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash hamda "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, 2012-yilda umumiy tushum 285,9 mlrd.so'mni tashkil etgan holda tushum hajmining eng yuqori Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelsa, eng past tushum holati Jizzax viloyati hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aytish joizki, Jizzax viloyati shu davrda sug'urta faoliyati bilan bog'liq ishlar o'z vaqtida to'g'ri tashkil etilmaganligidan dalolat beradi.

2021-yil holatiga ko'ra, sug'urta mukofotlarining umumiy tushumi 3732,8 mlrd.so'mni tashkil etgan holda tushum hajmining eng yuqori

miqdori Toshkent shahriga to'g'ri kelsa, eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Respublikamiz viloyatlari kesimida ma'lumotlarga tahliliy yondoshadigan bo'lsak, yillar davomida sug'urta mukofotlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Xulosa o'mida aytish joizki, mamlakatimiz sug'urta bozorida deyarli yigirma besh yil ichida amalga oshirilgan islohotlar o'z samarasini berib kelmoqda. Sug'urta bozorini rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sug'urta sohasidagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish;

- sug'urta kompaniyalariga to'laqonli mustaqillikni berish;

- sug'urta faoliyatiga doimiy nazorat qiluvchi organlarning aralashuvini oldini olish;

- sug'urta bozorida erkin raqobat muhitini shakllantirish;

- sug'urta bozorida kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va ularning rivojlangan davlatlardagi sug'urta kompaniyalarda malakasini oshirish.

Sug'urta bozorini rivojlantirish hamda sug'urtalash tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlarga innovatsion yondoshuv asosida keltirib o'tilgan tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishi sug'urta bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

References:

1. Buyuk Britaniyaning "New Frontier" tashkiloti ma'lumotlari ("Insurance Penetration Rate") <https://economictimes.indiatimes.com>.
2. Umarov S.A. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda sug'urta faoliyati rivojlanishini boshqarish". 08.00.13-Menejment ixtisosligi bo'yicha i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2012., 77-96 byetlar.
3. Shennayev X.M. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari//08.00.07–"Moliya, pul muomalasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. darajasini olish uchun dissertatsiya Avtoreferati. TMI: 2021.- 84 b.
4. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish //08.00.07–"Moliya, pul muomalasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. darajasini olish uchun dissertatsiya Avtoreferati. TMI: 2019.- 72 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 31.12.1992-yildagi 605-son "O'zbekiston Respublikasi davlat sug'urta organlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarori bilan tasdiqlangan. (Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-martdagi 125-son "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida" gi qarorining qabul qilinishi bilan o'z kuchini yo'qotgan). <https://www.lex.uz/ru/docs/547907>.
6. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonuni. 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan. (Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi O'RQ-730-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga asosan 2022-yil 25-fevraldan o'z kuchini yo'qotgan). <https://lex.uz/acts/40253>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.11.2002-yildagi 413-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (Hozirgi vaqtda mazkur hujjatga o'zgartirish kiritilmoqda). <https://lex.uz/docs/342368>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019-yildagi PF-5635-son "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4168749>.
9. <https://imda.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi sayti.